

**“TASDIQLAYMAN”**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi  
Statistika agentligi direktori  
o‘rinbosari



Z. Ziyayev

2024-yil “28” iyun

## **INTERAKTIV XIZMATNING REGLAMENTI**

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI SONINI REAL VAQT REJIMIDA AVTOMATIK HISOBLAGICH**

#### **1. Xizmatning ta’rifi (pasport)**

##### **1.1. Xizmat nomi**

O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni haqidagi tezkor axborot taqdim etilishi.

##### **1.2. Xizmat natijasi**

Real vaqt rejimida O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni haqida axborot.

##### **1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy veb-sayti.

##### **1.4. Huquqiy asoslar**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori.

##### **1.5. Xizmat qabul qiluvchilari**

Mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar.

##### **1.6. So‘rov berish muddatlari**

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

##### **1.7. Bajarilish muddati**

Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy veb-saytiga murojaat qilinganda – onlayn rejimda.

##### **1.8. Tasdiq berilish muddati**

O‘rnatilmagan.

## **2. Xizmat qabul qiluvchilarini xabardor qilish**

### **2.1. Axborot tarkibi va hajmi**

Jinslar kesimida O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni

### **2.2. Katta miqyosda xabardor qilish**

O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni haqida real vaqt rejimidagi tezkor axborot Statistika agentligi rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ning foydali ma'lumotlar sahifasida e'lon qilib boriladi.

### **2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish**

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha mazkur xizmat bo'yicha har qanday savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiq emas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-80-00 (Ichki-1250).

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha mazkur xizmat bo'yicha har qanday katta hajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (5 daqiqadan ortiq emas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-80-00 (Ichki-1250).

Elektron pochta orqali: onlayn rejimda [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz) elektron pochtasiga yozma so'rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF ) yoki kelishilgan boshqa formatlarda qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha yozma hujjatlarni odiy matn formatida, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF formatida yoki kelishilgan boshqa formatlarda uzatish.

Statistika agentligi rasmiy saytiga shaxsiy murojaat – onlayn rejimda.

### **2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish**

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100170, Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.

### **2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)**

O'rnatilmagan.

## **3. Xizmat ko'rsatish**

### **3.1. Ish vaqti**

Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytiga murojaat;

Ish tartibi: onlayn rejimda.

### **3.2. Kutish shartlari**

Xizmat onlayn rejimda ko'rsatiladi.

## **4. Xizmat ko'rsatish tartibi**

### **4.1. Shart bo'lgan hujjatlar**

Talab etilmaydi.

#### **4.2. Xizmat haqi**

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

#### **4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari**

O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni haqida axborot olish uchun, [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytiga kirish lozim. Saytning quyi qismidagi "Foydali ma'lumotlar" bo'limidan "Doimiy aholi soni" ko'rsatkichi tanlanadi.

#### **4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar**

1. Real vaqt rejimida doimiy aholisi soni ko'rsatkichini shakllantirish;
2. Har oyda ma'lumotlarga aniqlik kiritib borish.

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni ko'rsatkichini Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida e'lon qilish.

#### **4.5. Rad etish asosi**

O'rnatilmagan.

### **5. Sifat ta'minoti**

#### **5.1. Sifat parametrlari**

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

#### **5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat**

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika agentligining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

**5.3.Statistika ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha  
interaktiv xizmat ko'rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Sub'ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> rasmiy saytiga bevosita murojaat etadi	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Statistika agentligi	O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni ko'rsatkichini agentlik saytida yangilab boradi	doimiy
3-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi saytida "Foydali ma'lumotlar" bo'limidan O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi sonini tanlaydi	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Murojaatchi	Tanlangan statistika sohasi bo'yicha ma'lumotlaridan faqat tezkor tahlillarni amalga oshirishda foydalanadi	Real vaqt rejimida